II. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning yanvar-mart oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 6 371,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yil bilan taqqoslaganda 6,2 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021-yildagi narxlarga nisbatan 111,7 % ni tashkil qildi. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 5,8 % ga yetdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMni ishlab chiqarish
(yanvar-mart oylarida)

	mlrd. so'm		2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
	2021- yil	2022- yil	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	**5 370,7**	**6 371,1**	**106,2**
shu jumladan:			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5 193,3	6 115,5	106,1
Mahsulotlarga sof soliqlar	177,4	255,6	106,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	**5 193,3**	**6 115,5**	**106,1**
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	**1 114,4**	**1 262,5**	**103,9**
Sanoat *(qurilish sohasini qo'shgan holda)*	**1 394,3**	**1 658,2**	**107,9**
sanoat	959,2	1 154,9	108,5
qurilish	435,1	503,2	106,5
Xizmatlar	**2 684,7**	**3 194,9**	**106,1**
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	502,3	609,2	109,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	353,3	418,2	113,4
boshqa xizmatlar	1 829,1	2 167,5	103,9

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHMni ishlab chiqarish
(2022- yil yanvar-mart)

		Mlrd. so‘m		*O‘sish sur’atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da*
		2021- yil	*2022- yil*	
	I. YAHM	**5 370,7**	**6 371,1**	**106,2**
	shu jumladan:			
	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	5 193,3	6 115,5	106,1
	Mahsulotlarga sof soliqlar	177,4	255,6	109,6
	II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**5 193,3**	**6 115,5**	**106,1**
	Qishloq, o‘rmon va baliqchilikchilik xo‘jaligi	**1 114,4**	**1 262,5**	**103,9**
	Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	**1 394,3**	**1 658,1**	**107,9**
	sanoat	959,2	1 154,9	108,5
	qurilish	435,1	503,2	106,5
	Xizmatlar	**2 684,6**	**3 194,9**	**106,1**
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	502,3	609,2	109,0
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	353,3	418,2	113,4
	boshqa xizmat tarmoqlari	1 829,0	2 167,5	103,9

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibidagi ulushi

(foizda)

2021- yil yanvar-mart



2022- yil yanvar-mart



Yalpi hududiy mahsulotda 2022- yil yanvar-mart oylari davomida respublikadagi barcha kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmi 65 941,1 mlrd. so‘mni tashkil etib, shundan Namangan viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmi 3 861,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, 2021- yilning yanvar-mart oylarida O‘zbekiston Respublikasida 57 666,4 mlrd. so‘mni, Namangan viloyatida esa 3 381,9 mlrd. so‘mni tashkil qilgan.

Yalpi hududiy mahsulotda 2022- yil yanvar-mart oylarida respublikadagi barcha kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmdagi ulushi 44,7 % (2021- yil yanvar-mart 47,2 %) ni tashkil etgan bo‘lsa, Namangan viloyatining ulushi 63,1 % (2021- yil yanvar-mart 65,1 %) ni tashkil etdi.

2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha deflyator indeksi
(o’tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-mart oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi
(jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 63,1 %ni tashkil qildi (2021-yilning yanvar-martida – 65,1 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.



Aholi jon boshiga nisbatan Yalpi hududiy mahsulot hajmi

(ming so‘m)

	2021- yil *(yanvar-mart)*	2022- yil *(yanvar-mart)*
Yanvar-mart	1 869,3	2 168,5

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHMni ishlab chiqarish

(2022- yil yanvar-mart)

	mlrd. so‘m		Respublikada tutgan ulushi, % da
	O‘zbekiston Respublikasi	Namangan viloyati	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	**162 784,6**	**6 371,1**	**5,8**
shu jumladan:			
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	147 390,5	6 115,5	**5,3**
Mahsulotlarga sof soliqlar	15 394,1	255,6	**0,5**
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**147 390,5**	**6 115,5**	**5,9**
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	**19 395,8**	**1 262,5**	**0,4**
Sanoat *(qurilish sohasini qo‘shgan holda)*	**58 302,1**	**1 658,2**	**2,2**
sanoat	47 973,1	1 154,9	**1,8**
qurilish	10 329,0	503,2	**0,4**
Xizmatlar	**69 692,6**	**3 194,9**	**3,3**
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	12 201,9	609,2	**0,7**
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	11 690,7	418,2	**1,2**
boshqa xizmatlar	45 800,0	2 167,5	**1,4**

YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 103,9 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 20,6 %), sanoatda – 108,5 % (18,9 %), qurilishda – 106,5 % (8,2 %), xizmatlar sohasida – 106,1 % ni (52,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 109,0 % (10,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa tarmog‘ida 113,4 % (6,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,9 % dan (35,5 %) iborat bo‘ldi.

2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)